

BARCHASI SHU YERDAN UA SHU ONDAN BOSHLANADI

# TA'LIM ZIYOSI

## HAQIQIY QADRIYATLAR BAYRAMI

Shu kunlarda mamlakatimiz bo'ylab Navro'z sayillari keng nishonlanmoqda. Universitetning talabalar shaharchasida o'tkazilgan bayram shodiyonalarini talaba-

yoshlar uchun unutilmas lahzalarga boy bo'ldi. Ayniqsa, osh musobaqasi va universitet rahbariyatining e'tirofi va e'tibori sayilga shukuh bag'ishladi.

Sumalak pishirish asosida milliy qadriyat va marosimlar, jumladan, sumalak tayyorlashning qat'iy an'analar asosida ma'lum tartib-qoidalarga amal qilingan holda bajarilishi yoshlarga uqdirildi.

Shuningdek, talaba-qizlar ham sumalak atrofida alyollar va she'riy bayt-baraklar bilan faol ishtirok etdilar. Sumalak muqaddas taom sifatida qadrlanishini o'zları tug'ilib

o'sgan hududlari misolida tushuntirib berdilar.

"Sumalak sayli" tonggacha davom etib, universitet yotoqxonalarida "bir



### TANQIDIY FIKRLASH – BILIMGA YO'L OCHUVCHI KALIT

Zamonaviy dunyoda ma'lumot oqimi misliz tezlik bilan ortib bormoqda. Biz har kuni turli manbalardan axborot qabul qilamiz: internet, ijtimoiy tarmoqlar, televiedenie, kitob va gazetalar. Ammo bu axborotning barchasi ham haqiqat emas. Shuning uchun ham har bir inson mustaqil fikrashni, ma'lumotni tahlil qilishni va xulosalar chiqarishni o'rganishi kerak. Aynan tanqidiy fikrash shu jarayonda eng asosiy vositalardan biridir. Axborot ilmida "fakt-cheking" degan tushuncha bor. Ya'ni mavjud axborotlarni saralash, solishtirish, uning to'g'riligini, xolisligini tekshirish bugungi kunda muhimdir.

Tanqidiy fikrash – bu har qanday axborotni sinchkovlik bilan tahlil qilish, asosli dalillarga suyanib, xulosa chiqarish san'atidir. Mashhur faylasuf Rene Dekartning so'zlari bilan aytganda: "Aqlning eng buyuk fazilati – hech narsani shubhasiz qabul qilmaslikdir."

Bugungi kunda dezinformatsiya, yolg'on yangiliklar va noto'g'ri tushunchalar jamiyatga katta ta'sir o'tkazmoqda. Shuning uchun ham har bir inson, ayniqsa, yosh avlod, tanqidiy fikrashni o'rganishi shart. Bu nafaqat yolg'on axborotni aniqlash, balki mustaqil fikr yuritish va to'g'ri qaror qabul qilish uchun ham zarur.

Ta'lim tizimi insonni faqatgina bilim bilan qurollantirishi emas, balki mustaqil fikrashga o'rnatishi lozim. O'quvchilar va talabalar o'qituvchining gaplarini shunchaki eshitib, yodlash bilan cheklanmasdan, berilgan ma'lumot ustida o'ylab, uni tahlil qilishlari kerak. Mashhur olim Albert Eynshteyn ta'kidlaganidek: "Maktabning vazifasi – yoshlarni butun hayoti davomida mustaqil fikrashga o'rnatishdir."

Afsuski, aksariyat ta'lim tizimlarida o'quvchilar o'z fikrlarini bildirishdan ko'ra, tayyor bilimlarni qabul qilishga o'rnatiladi. Holbuki, savol berish, bahslashish, alternativ nuqtai nazarni o'rganish orqali insonning tafakkuri rivojlanadi. Buni chuqur anglagan ta'lim muassasalari interfaol o'qitish metodlariga e'tibor qaratmoqda, bunda muhokamalar, debatlar va tahliliy topshiriqlar asosiy o'r'in tutadi.

Bugungi kunda ekologik muammolarga yechim topish, yashil maydonlarni ko'paytirish va aholining atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatini oshirish maqsadida respublika bo'ylab amalga oshirilayotgan "Yashil makon" umummilliyligi doirasida yana bir muhim tashabbus amalga oshirildi. Prezidentimizning

Zamonaviy dunyoda tanqidiy fikrash nafaqat ta'lim, balki kundalik hayotda ham muhim rol o'ynaydi. Internetedagi ayrim yolg'on ma'lumotlarga aldanmaslik, reklamalarning ta'siriga tushib qolmaslik, jamiyatdagi muhim masalalar bo'yicha to'g'ri qaror qabul qilish uchun inson tanqidiy fikrashni o'rganishi shart.

Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan ma'lumotni tekshirmasdan baham ko'rish ko'plab noto'g'ri tushunchalarning keng tarqalishiga sabab bo'ladi. Bugungi kunda mediasavodxonlik va tanqidiy fikrash bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, har bir fuqaroning axborotga ongli yondashishini ta'minlaydi.

Tanqidiy fikrash – insonni hayot sinovlariga tayyorlaydigan eng muhim qurollardan biridir. U insonni manipulyatsiyalardan himoya qiladi, ilmiy va kundalik muammolarni hal qilishda yordam beradi, shuningdek, insoniyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Shuning uchun ham ta'lim tizimi faqat bilim berish bilan cheklanmasdan, o'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrash ko'nkmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishi lozim.

Yodingizda bo'lsin, "Kim ko'p biladi, u hamma narsaga ishonmaydi." – bu haqiqatni tushungan har bir inson to'g'ri xulosa chiqara oladi va hayotda muvaffaqiyat qozonadi!

Hasanjon ABDURAHMONOV,  
talaba

**yaratish ishlari boshlangan. Ushbu xayrli ishta Chirchiq davlat pedagogika universiteti ham faol hissa qo'shamoqda.**

Universitetning Jismoniy madaniyat fakultetida loyiha doirasida «Ziyolilar bog'i» yaratildi.

Mazkur bog' talabalarga va o'qituvchilarga nafaqat dam olish joyi, balki ekologik ongi

### "YASHIL MAKON" UMUMMILLIY LOYIHASI AMALDA



tashabbusi bilan boshlangan ushbu loyiha bugungi kunda universitetlarda ham keng qo'llanilmoqda, uning doirasida bir necha o'quv muassasalarida zamonaviy ekologik bog'lar

shakllantirish, tabiiy go'zallikni saqlash va tabiatni sevishni o'rnatish imkonini yaratadi.

– Ushbu boqqa 150 tupga yaqin mevali va manzarali daraxtlar ekildi, – deydi bo'lim rahbari Farhod Ikromov. – Jismoniy madaniyat fakulteti yoshlari ana shu ko'chatlar to'liq o'zini tutishi va ularning parvarishiga mas'ul bo'ladi. Bundan tashqari, bog'da o'tkaziladigan ekologik tadbirlar va seminarlar orqali talabalar tabiatni asrashning zarurligini va ekologik muammolarni hal etish yo'llarini o'rganadilar. Bu bog'ning tashkil etilishi talabalarga tabiatni qadrlash va uning go'zalligini saqlashni o'rnatishda muhim qadam bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Maqsadimiz – bu ishlarni nomigagina qilish emas, balki talabalarimiz uchun mazza qilib dam oladigan, kayfiyatini ko'taradigan bog' yaratish. Farhod IKROMOV

## UNIVERSITET GAZETASI 3-son

Gazeta ichida gazeta

piyola choy ustida dildan suhabat"ga ulanib ketdi.

Sayilda universitet rektori G'ofurjon Muamedov ham ishtirok etdi. Universitet rahbari sayil ishtirokchilarini bahoriy bayramlar bilan tabriklab, doshqozonda qaynagan sumalakning o'ziga xos shukuh borgilini qayd etdi. Yotoqxonalararo o'tkazilgan turli musobaqalar sayilga ko'tarinki ruh olib kirdi. O'zbekona taom hisoblangan oshning o'zgacha tarzda davraga tortiq etilishi ko'ngillarga xushnudlik olib keldi.

Bayram tadbirini iste'dodli talabalar milliy kuy-ko'shiqlar ijrosi bilan davom ettrishdi.

Navro'z sayli talabalar yodida yaxshi xotiralar bilan saqlanib qolishi, shubhasiz.

**Munira BALTAYEVA,**  
"Chumoli tabalar" media guruhi  
rahbari

### TA'LIM – KELAJAK BESHIGI

Hozirgi kunda ta'lim – jamiyatning asosi va milliy rivojlanishning poydevori. Chirchiq davlat pedagogika universiteti – zamon talablariga javob beruvchi pedagoglarni tayyorlaydigan, ta'limning yuqori cho'qjisiga intilayotgan yosh avlodning yo'llini ochadigan bilim dargohi hisoblanadi.




Men, Nasiba Sayfudinova mazkur universitetning Gumanitar fakulteti Qozoq tili va adabiyoti mutaxassisligi bo'yicha 3-bosqich talabasiman. Millatim qozoq bo'lgani uchun O'zbekistonda ona tilimda olyi ta'lim olish baxtilga tuyassar bo'lganimdan behad baxtiyorman. Bizga yaratilgan imkoniyatlar uchun barcha ta'lim fidoyilariga chuqur minnatdorligimni bildaraman.

### (TAVSIYA ET'LADI)

Maxsus pedagogika kafedrasi professori Qodirova Feruzaxon Usmanovnaning "Sensor integratsiyada sog'lomlashtiruvchi yondashuvlarning o'rni" mavzusida ochiq ma'ruzasi 2025-yil 26-mart kuni, 1-bino, 420-auditoriyada, soat 10.30 da bo'lib o'tadi.  
**Murojaat uchun telefon:** +998(97) 548-50-11



Maxsus pedagogika kafedrasi dotsent Fayziyeva Ubayda Yunusovnaning "Jarrohlikdan keyingi eshituv nutqiy reabilitatsiya bosqichi va davrlari" mavzusida ochiq ma'ruzasi 2025-yil 8-aprel kuni, 1-bino, 316-auditoriyada, soat 9.00 da bo'lib o'tadi.  
**Murojaat uchun telefon:** +998(97) 548-50-11



Maxsus pedagogika kafedrasi dotsenti Abdullayeva Gavhar Saparovnaning "Potologiya zritel'nogo analizatora cheloveka" mavzusida ochiq ma'ruzasi 2025-yil 7-aprel kuni, 1-bino, 415-auditoriyada, 2-smena, soat 15.00 da bo'lib o'tadi.  
**Murojaat uchun telefon:** +998(97) 548-50-11



Maxsus pedagogika kafedrasi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori Kobilova Shaxnoza Xudayshukurovnanning "Bolaning ruhiy rivojlanishida biologik va ijtimoiy omillarning o'rni" mavzusida ochiq ma'ruzasi 2025-yil 17-aprel kuni, 1-bino, 117-auditoriyada, soat 10.30 da bo'lib o'tadi.  
**Murojaat uchun telefon:** +998(97) 548-50-11

**BAHOR BAYOZI**

21-mart – Butunjahon she'riyat kuni

**BIZ KUTGAN BAHOR**

Ko'zimni yashnatib olis tomondan,  
Lola holin so'rab yaxshi-yomondan,  
Bulbularni chorlab olis tomondan,  
Mana, bizlar kutgan navbahor keldi.

Qaynoq qalblarga qadamin tashlab,  
Qishdan qolgan qorlar ko'zlarini yoshlab,  
Ko'klamga entikdik, yo'llarni boshlab,  
Mana, bizlar kutgan lola ham keldi.

Mehrin tafti bilan isinar yurak,  
Har bahorda tila – orzu va tilak,  
Toshga ham tilak ayt, erir sumalak,  
Orziqqan ko'ngilga bahor ham keldi.

Kelsa shodlik bo'lар, xurramlik bo'lар,  
Bo'sh yuraging g'olib hislarga to'lar.  
Ilinjing ushalar, tashvish yo'qolar,  
Mana, so'zin so'zlab bahor ham keldi.

Kelsang kel, ko'klamoy, ishqing bilan kel,  
Sog'inib yoringni, rashking bilan kel.  
Ijod – ilhom ko'rki, mashqing bilan kel,  
Shoshib, shivirlashib bahor ham keldi.

Sochiga jamalak olgan qizlarjon,  
Atlasin egniga kiygan qizlarjon,  
O'zini bahor deb bilgan qizlarjon,  
Mana, intiq dilga bahor ham keldi.

O'rab qiyg'os gulga katta bog'immi,  
Maysa, shivirladim – tingla ohimni.  
Do'stim, qadrdomim, bil so'rog'inni,  
Mana bizlar kutgan bahor ham keldi.

Shaftoli gullasa, xo'p qilar pardozi,  
Borilqini yasatib berib oq libos.  
Turnalar kelishib, berishdi ovoz,  
Demak, bizlar kutgan bahor ham keldi.

**Nigina BOBOYEVA,**  
Turizm fakulteti talabasi**YURTIM**

Yozay desam, sen haqingda jon Vatanim,  
Bisotdan izlab-izlab, so'z topolmayman.  
Hayajondan bir qalqidi jon va tanim,  
Misra bitib, daftarmimi yopolmayman.

Abdulla Oripovdek farzandlaring bor,  
Keng olamga sening madhing taratgandi.  
«O'zbekiston vatanim» deb mardonavor,  
«O'zbekiston» qasidasin yaratgandi.

Zulfiyaga sirdosh bo'lgan qalamim bor,  
Unda qancha she'r bitilgan senga yurtim.  
Qalam tutgan o'z-o'zimda alamim bor,  
Halimaga izdosh bo'lgum bu kun yurtim...

Bag'ringdaman, jannatmakon mening o'lkam!  
Qishloqlaring shaharlardan kammash bugun.  
Vodiyl – voha birdekk go'zal, so'lim, ko'rkm,  
Shukur deyman sening qizing bo'lganim-chun.

Yangi nafas urar yuzga har qadamda,  
Mudrayotgan qalblar bugun ko'zin ochdi.  
G'urur hissi jo'sh uradi har odama,  
Quyosh go'yo yaqinroqdan nurin sochdi.

Yangilikka qo'rqmay boqib, tashlab qadam.  
Yurtim, jahon minbariga qasring solding.  
Insoniylik tuyg'ularin targ'ib etib,  
«Yangi O'zbekiston» degan nomni olding!

Bag'ringda ko'p iste'dodli olov yoshlar,  
Har sohada bayrog'ingni ko'tarmoqda.  
Sportingga tahsin o'qib, to'kib yoshlar,  
Turganida shunday she'rlar ko'karmoqda!

**Gulnora HIMMATOVA**  
Gumanitar fanlar fakulteti talabasi

**ONA TILIM**

Toshlarga bitilgan qadim xotiram,  
Qoshg'ariy boboming ko'nglidagi nur.  
Hazrat Navoiydan qolgan xazinam,  
Sehrli allangda mujassam mehr.

Ona deb atadim, ey tilim – shonim,  
Sening-la tanidim Vatan nomini.  
Ezgu fazilatlar, qadriyat – barin,  
Buyuk bobolarim shavkat-shonini.

Seni unutganlar – beqadr, beshon,  
Zavolga yuz tutar misoli manqurt.  
Sen axir millatning cho'ng ildizisan,  
Sen borsan, o'zligim bo'lmaydi unut.

Ko'zim qorasida asrayman seni,  
Mehringdan qo'r olib, ash'orlar bitgum.  
Sen bir nafas bo'lsang – yutmay o'taman.  
Sen bor qoyalarni yelkamda tutgum!

**Ruxshona RAHMATULLAYEVA**  
Gumanitar fanlar fakulteti talabasi

**YOR RO'MOLI**

Qollarimda qoldi yorning ro'moli,  
Oydan ham go'zaldu husn-u jamoli.  
Urmasa bo'ldi-da sevgim uvoli,  
Bo'lomadi yorim nechun vafoli?

O'zga boqqa qo'ndi, oh, nechun uchib,  
Men esa qoldimku gulimni quchib.  
Gul ham oldi bugun tikonin sanchib,  
Esiz, pok sevgimni tashladi yanchib.

Endi yor demoqqa bormikan haqqim,  
Qo'llarim yetmadji, yo'q edi naqqim.  
So'ndi-da sevgiga bo'lgan bu shahdim,  
Tuproqqa ko'mildi yigitlik ahdim.

Bog'dan tanlagandim, gulimni saylab,  
Kapalak qo'nardiunga avaylab.  
Ballki taqdir kuldi bugun ataylab,  
Otashin sevgimni tuproqqa joylab.

Qollarimda qoldi qizil ro'moli,  
Taralar yorimning atrin ifori.  
Urmasa bo'lgani sevgim uvoli,  
Nechun bo'lomadi yorim vafoli?

**VATAN**

Tuprog'i muqaddas, go'zal diyorsan,  
Jannatdek yam-yashil ajib makonsan.  
Vujudimda oqqan qip-qizil qonsan,  
Onam o'zing Vatan, otamsan – Vatan!

Bog'lariningda o'sar lola, qizg'aldoq,  
Sen doim yuksakka bizdek kulib boq.  
Osmoni musaffo ajib diyorsan,  
Gullarga burkangan go'zal bo'stonsan!

Amudaryo, Siring to'lib toshadi,  
Temur shijoati shunda oshadi.

To'marisning o'chmas izisan Vatan!  
Boburlarning ko'r ko'zisan, Vatan!

Tug'iladi hali qancha Behbudiy,  
Yer taxini chizdi bobom Beruniy.  
Ulug'beklar sevgan osmonsan, Vatan,  
Ta'rif tugamas doston san, Vatan!

Oq oltin, bug'doying elga mashhurdir,  
Marg'ilon adrasi-atlasi mashhur.  
Mashhurdir dunyoga Samarqand noning,  
Choyni shirin qilgan novvotsan, Vatan!

Xiva, Buxorolar tarixiy shahar,  
Islomning markazi tarixdan azal.  
Ne-ne imomlarining onasisan sen,  
Allohning mehri-yu zikrisan, Vatan!

Osiyo yuragi – O'zbekistansan,  
Jannah tarovati esgan bo'ston san.  
Temuring Vatani ona Turonsan,  
O'ziga bek bo'lgan O'zbekistansan!

**Miraziz NARZULLAYEV,**  
Gumanitar fanlar fakulteti talabasi

**SOG'INCH**

Yuragim muzlatib ketgan edi qish,  
Bo'roni hayolim uchirgan har yon.  
Unutmoqlik asli og'ir bir tashvish,  
Seni sog'intirib o'tmoqda bahor.

Mayin shabbodasi sochimni silab,  
Bodomning g'unchasi holimni so'rab.  
Yomg'ir tomchilar ko'p sabr tilab,  
Seni sog'intirib o'tmoqda bahor.

Sirimni hech kimga ayta olmayman,  
Sog'indim deyish ham qiz bolaga or.  
Lek, sensiz yashashga ko'nikolmayman,  
Seni sog'intirib o'tmoqda bahor.

Tentirab yuraman, sendadir xayol,  
Rasmingga tikilib tunlarim bedor.  
Mayli, kel, qiynama shu jonimni ol,  
Seni sog'intirib o'tmoqda bahor.

Sog'inch deb atalmish daryo ham to'ldi,  
Beg'ubor tuyg'ular chekmoqda ozor.  
Seni kutib mana bahor – yoz bo'ldi,  
Seni sog'intirib o'tmoqda bahor.

**Dilnura ULASHYEVA,**  
Gumanitar fanlar fakulteti talabasi


**SHIR-U SHAKAR**

Omad, bahori zebo,  
Boychechak ham ochildi,  
Bo nasimi diloro,  
To'rt tomonga yoyildi,

Fasli beg'ubori sol,  
Xohlasang bir umr qol,  
Og'o'shat nozan ast,  
Bag'rimming ziyo bo'l.

Har dam duo mekunam,  
Bahor yagona bo'lsin!  
Az lazzati shirinash,  
Qalbim quvonchga bo'lsin!

**Nazira ALIQULOVA,**  
Gumanitar fanlar fakulteti talabasi

**MUHABBAT**

Arazlama, noz-u karash mangni qo'y,  
Xayolimni yeydi har kun xar hil o'y.  
Sabrimni sinama, qo'ygin, pariro'y,  
Mayli, har kun eslab, yozma uzun xat,  
Men toonga qarab qo'ygin, Muhabbat.

Ketolmayman tashlab, seni yolg'onchim,  
Azobingdan jimman, yuragim tilim.  
Yagonamsan o'zing, o'zing quvonchim,  
Mayli, har kun eslab, yozma uzun xat,  
Men toonga qarab qo'ygin, Muhabbat.

**ONAMNI QARITMA,  
DUNYO !**

**Qora sochi oqqa aylanib,  
Qolganini sezmay qolibman.  
Vaqt o'tibdi bir-bir shaylanib,  
Onam sochiga oq solibman.**

**Kechagina men bola edim,  
Soddagina, beg'ubor ham g'o'r.  
Hammadan tez ulg'aysam, derdim,  
Dunyo kezsam – bo'lsam zo'r shoir.**

**Oh sezdimki, onam qaribdi,  
Oh ketibdi, ko'zlaridan nur.  
Kun botibdi, tong oqaribdi,  
Qani endi avvalgi surur?**

**Sog'inchimdan so'limasin yuzing,  
Meni o'y lab bo'limgan ado.  
Balolikka chipta oldim men,  
Endi uni qaritma, dunyo!**

**Madina SHAVKATOVA**  
gumanitar fanlar fakulteti talabasi

**TUN YARMIDA**

Tun yarmida ko'zlarim ochdim,  
Boqar edim shiftga mo'ltirab.  
Xayollarim hamon parishon,  
Sovuqdanmi, tanam qaltirab.  
Gumburlardi momoqaldiroq,  
To'fon kabi yomg'ir ovozi.  
Ko'ngillarga solardi titroq,  
Tabiatning kuylagan "sozi".  
Nogoh ko'zim tushdi sandalga,  
Onam xira shamning qoshida.  
Zo'r-u bazo'r ipni o'tqazar,  
Olam-olam o'ylar boshida.  
Kech angladim uning qadrini,  
Onalar bor – issiq xonalar.  
Farzand uchun qancha dardlarni  
Yengib yashar bedor onalar.

**Bibirobiya NE'MATOVA**  
gumanitar fanlar fakulteti talabasi

**Ushbu qo'shsahifa Chirchiq davlat  
pedagogika universitetining  
Axborotxizmati  
tomonidan tayyorlandi.**